


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Gulbahor SAIDG'ANIYEVA

ADABIYOT NAZARIYASI

(Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha uslubiy tavsiyalar)



Toshkent
«Akademnashr»
2013



UO'K: 821.512.133(072)

KBK: 74.268.3

S-21

Адабиёт фанлари ўқу
литератураси

S-21

Saidg'aniyeva, Gulbahor

Adabiyot nazariyasi / G.Saidg'aniyeva. – Toshkent: Akadem-
nashr, 2013. – 32 b.

UO'K: 821.512.133(072)

ISBN 978-9943-4120-2-6

KBK: 74.268.3

*Ushbu uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va kollejlarning
filolog o'qituvchilari, talabalar va barcha qiziqqan o'quvchilarga mo'ljallangan.*


Taqrizchilar:

Barno Abdurahmonova, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
Zebo Qobilova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-4120-2-6

© G.Saidg'aniyeva «Adabiyot nazariyasi»

© «Akademnashr», 2013



KIRISH

Mamlakatimizda adabiyotga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan pallada adabiyot fanlarining o'qitilishi ham fan o'qituvchilari oldiga ma'lum vazifalarni qo'yadi. Milliy adabiyotimiz targ'iboti, uni o'rganuvchilar uchun qulayliklar yaratish davr talabidir. Shu maqsadda «Adabiyot nazariyasi» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalarimizni tavsiya etamiz.

Davlat ta'lim standartlarida «Adabiyot nazariyasi» faniga quyidagicha talablar qo'yilgan: Badiiy adabiyot va adabiyot nazariyasi. Adabiy-nazariy bilim tarixi. Yevropada adabiy-estetik oqimlar. Bilish nazariyasi va badiiy adabiyot. Badiiy adabiyotda voqelik va xarakter, qarama-qarshilik, kompozitsiya, asar mazmuni, estetika va tragediya (fojea), tipiklik va tip, milliylik va baynalmilallik, an'ana va yangilik, shakl va mazmun. Adabiy janrlar, turlar va uslublar. Ijodiy uslublar va oqimlar. Lirik, she'riyat haqida tushuncha, ularni tahlil va tadqiq qilish prinsiplari.

Shulardan kelib chiqib o'quv rejasi asosida ajratilgan 10 soatlik amaliy mashg'ulot mavzulari uchun dars xaritasi va modeli, uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida taqdimot slaydlari orqali o'tish ko'zda tutildi.

«Adabiyot nazariyasi» fani bo'yicha ushbu mo'jaz risola kelgusidagi boshqa uslubiy qo'llanmalarga ham debocha bo'ladi deb ishonamiz.

1-mavzu. ADABIY-NAZARIY TAFAKKUR TARIXI

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 25 – 30
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar
Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Qadimgi Yunonistonda adabiy-nazariy fikrlarning vujudga kelishi 2. Sharqda adabiy-nazariy fikrlarning vujudga kelishi 3. G'arbda adabiy-nazariy tafakkurning paydo bo'lishi va taraqqiyoti 4. Zamonaviy adabiyotshunoslik
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quv kursi bo'yicha umumiy tushuncha berish. Mavzu yuzasidan ma'ruzada olingan bilimlarni chuqurlashtirish</i>	
Pedagogik vazifalar: • Qadimgi Yunonistonda adabiy-nazariy fikrlarning vujudga kelishi bo'yicha tushunchalar hosil qilish; • Sharqda adabiy-nazariy fikrlarning vujudga kelishi bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; • G'arbda adabiy-nazariy tafakkurning paydo bo'lishi va taraqqiyoti haqida bilimlarni kengaytirish. Zamonaviy adabiyotshunoslik rivoji haqida ma'lumot berish.	O'quv faoliyati natijalari: • Qadimgi Yunonistonda adabiy-nazariy fikrlarning vujudga kelishi bo'yicha tahlilni tizimli tushuntirib beradilar; • Sharqda adabiy-nazariy fikrlarning vujudga kelishi bo'yicha olingan ma'lumotlarni aytib beradilar; • G'arbda adabiy-nazariy tafakkurning paydo bo'lishi va taraqqiyoti haqida ma'lumotlarni yoritib beradilar; Zamonaviy adabiyotshunoslik yuzasidan olgan bilimlarini bayon etadilar.
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor so'rov
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, guruhlarda ishlash

Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. Adabiy-nazariy tafakkur tarixi mavzusidagi amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsad-ni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshirqlarini ishlab chiqadi. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	
O'quv mashg'uloti-ga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosli tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi. 1.3. Ish guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirishini e'lon qiladi.	Savollarga javob beradilar.

Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlik asosida ishlash usuli qoidalarini bilan tanishtiradi. Har bir guruh mavzu rejasini asosida taqdimot tayyorlashini aytadi. 2.2. O'quv kursi mavzulari bo'yicha tayyorlangan ekspert varaqalarini tarqatadi. 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to'liq yoritilishini kuzatadi. 2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruhlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatadi, savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlar-ga bo'linadilar. Topshiriqlar bo'yicha ishlaydilar. Faol qatnashadilar, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydilar. Guruhdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida hamkorlik qiladilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar.
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar.

Amaliy mashg'ulot rejasini

1. Qadimgi Yunonistonda adabiy-nazariy fikrlarning vujudga kelishi.
2. Sharqda adabiy-nazariy fikrlarning vujudga kelishi.
3. G'arbda adabiy-nazariy tafakkurning paydo bo'lishi va taraqqiyoti.
4. Zamonaviy adabiyotshunoslik.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quv kursi bo'yicha umumiy tushuncha berish. Mavzu yuzasidan ma'ruzada olingan bilimlarni chuqurlashtirish.

O'quv faoliyati natijalari: Talabalarga adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti haqida tushuncha beriladi; butunjahon adabiyotshunosligi, nazariy qarashlar xususida ma'lumot beriladi; zamonaviy adabiyotshunoslik rivoji yuzasidan tushuntirish beriladi.

Uslubiy ko'rsatmalar

Amaliy mashg'ulot to'rt bosqichdan iborat bo'ladi. 1-bosqich o'qituvchining darsni tashkil etishga tayyorgarligidan iborat. Bu bosqichda o'qituvchi o'tiladigan mavzuni aniqlab, unga mos topshiriqlarni hamda kichik guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan ko'rsatma, yo'riqnomalarni, shuningdek, baholash mezonlarini tayyorlaydi. Amaliy mashg'ulot jarayoni bevosita uch bosqichdan iboratdir:

1. Ushbu bosqichda salomlashib, darsni boshlagandan keyin yangi mavzu, darsning maqsadi va undan kutilayotgan natijalar e'lon qilinadi. Yangi mavzu yuzasidan rejali asosda muhim tushunchalar doirasida tezkor so'rov o'tkaziladi. Guruhlarda ishlash qoidasi e'lon qilinadi.

2. Talabalar 4 guruhga bo'linadilar. Ularga kichik guruhlarda ishlash qoidalari tushuntiriladi. Bu guruhlariga dars rejasi asosida taqdimot tayyorlash topshiriladi.

Avvaldan tayyorlangan maxsus so'zlar yozilgan tarqatmalar parta ustiga qo'yib chiqiladi. O'qituvchi tomonidan tayyorlangan kichik tarqatmalarda ko'rsatilgan so'zlar (**Qadimgi Yunonistonda adabiyotshunoslik rivoji, Sharqda adabiy-nazariy tafakkur rivoji, G'arbda adabiyotshunoslik rivoji, Zamonaviy adabiyotshunoslik**) yozilgan kartochkalarni talabalar kelib olishadi. Bir xil so'z tushgan talabalar o'sha so'z yozilgan stol atrofiga o'tiradilar.

Talabalarni 4 guruhga bo'lib olganimizdan so'ng har bir guruhga mavzu yuzasidan savol yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Taxminan quyidagicha savollar beriladi:

Quyidagi asarlarning muallifi to'g'ri ko'rsatilganmi?

1. «Hadoyiq us-sihr» – Shamsi Qays Roziy
2. «Al mu'jam fi maoyiri ash'oril-ajam» – Rashiddin Vatvot
3. «Lubob ul-albob» – Nasriddin Tusiy
4. «Funun ul-balog'a» – Muhammad Avfiy

Shundan keyin to'g'ri javob yozilgan slayd namoyish qilinadi.

- «Hadoyiq us-sihr» – Rashiddin Vatvot
- «Al mu'jam fi maoyiri ash'oril-ajam» – Shamsi Qays Roziy
- «Lubob ul-albob» – Muhammad Avfiy
- «Funun ul-balog'a» – Nasriddin Tusiy

Quyidagicha test savollari bo'yicha mashq o'tkazish mumkin:

XX asr rus va G'arb adabiyotshunoslari:

- A) Lotman, Bualo, Gegel, Belinskiy
- B) Jirmunskiy, Didro, Lotman, Kamyu
- C) Lotman, Jirmunskiy, Uorren, Uellek

XX asr o'zbek adabiyotshunoslari:

- A) B.Sarimsoqov, A.Rustamov, U.To'ychiyev
- B) A.Qayumov, A.Husayniy, Cho'lpon
- C) A.Fitrat, Cho'lpon, O.Sharafiddinov, Zamaxshariy
- D) A.Husayniy, S.Erkinov, A.Rustamov

Guruh sardorlari o'qituvchi stolidagi kartochkalardan birini tanlaydi, kartochkalarda ilmiy risolalar nomi yozilgan bo'ladi (o'tgan darsda talabalarga uyga vazifa tarzida ma'lum va mashhur asarlar haqida o'qib kelish topshirilgan bo'ladi). Bu topshiriq orqali talabalarning kitobxonlik darajasi hamda mavzuni qay darajada o'zlashtirgani aniqlanadi.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt mobaynida guruhlar o'zaro kelishgan holda ishlaydilar. So'ng guruh sardorlari chiqib topshiriqni taqdim qiladilar.

O'qituvchi mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi. Xulosa qilib aytganda, ushbu metod talabalar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi: talabalarda guruh bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi, mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejiladi.

1. Bu bosqichda o'qituvchi o'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.

Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.

Dars yakunida baholash mezonlari asosida talabalar baholanadilar va keyingi dars yuzasidan uyga vazifa beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.

4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.pedagog.uz/> pedagogika muassasalari portali

2. <http://www.ziyouz.com>

3. <http://www.ijod.uz>

4. <http://www.ziyo.net>

2-mavzu. BADIY ASAR TARKIBI VA TAHLILI

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni 25 – 30
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	• Badiiy asardagi yetakchi tamoyillar • Badiy asar kompozitsiyasi, uning ta'rifi va tavsifi • Syujet va kompozitsiya mutanosibligi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: xalqchillik, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining badiiy asarlardagi tasviri, badiiy asar kompozitsiyasi, kompozitsiya haqida tushuncha; kompozitsiya ta'rifi va tavsifi; asar kompozitsiyasi tamoyillari; kompozitsiya vositalari; syujet va kompozitsiya mutanosibligini tahlil qilish</i>	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
• Talabalarga badiiy asardagi tamoyillar haqida tushuncha berish; • Kompozitsiya, uning ta'rifi va tavsifi bilan tanishtirish; • Syujet va kompozitsiyaning o'zaro mutanosibligini tushuntirish.	• Talabalarga badiiy asardagi tamoyillar haqida tushuncha beriladi; • Kompozitsiya, uning ta'rifi va tavsifi bilan tanishtiriladi; • Syujet va kompozitsiyaning o'zaro mutanosibligi tushuntiriladi.
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor so'rov
Ta'lim berish metodlari	«Zigzag» metodi
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

2.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1. O'quv mashg'uloti-ga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati, dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi. 1.3. Ish guruhlarida o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirishini e'lon qiladi.	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarida hamkorlikda ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi. 2.2. Har bir guruhga savollar beradi va ularga javob berish talab etiladi. 2.3. Guruhlar ishida yordam (maslahat) beradi. 2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga jamoaning javoblarini bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, yana qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlarida ishlaydilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar. Guruh sardorlarini tayinlaydilar va ular hamkorligida ishlaydilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar. O'zini o'zi baholaydilar

3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiriladi. 3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar.
--------------------------------	--	--

MAVZU: BADIY ASAR TARKIBI VA TAHLILI

Amaliy mashg'ulot rejası

1. Badiiy asardagi yetakchi tamoyillar.
2. Badiiy asar kompozitsiyasi, uning ta'rifı va tavsifi.
3. Syujet va kompozitsiya mutanosibligi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: xalqchillik, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining badiiy asarlardagi tasviri, badiiy asar kompozitsiyasi; kompozitsiya haqida tushuncha; kompozitsiya ta'rifı va tavsifi; asar kompozitsiyasi tamoyillari; kompozitsiya vositalari; syujet va kompozitsiya mutanosibligini tahlil qilish.

O'quv faoliyati natijalari: talabalarga badiiy asardagi tamoyillar haqida tushuncha beriladi; kompozitsiya, uning ta'rifı va tavsifi bilan tanishtiriladi; syujet va kompozitsiyaning o'zaro mutanosibligi tushuntiriladi.

Uslubiy ko'rsatmalar

Amaliy mashg'ulot uch bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Dars boshlangandan so'ng o'qituvchi talabalarni mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati, dolzarbliligini asoslaydi.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi.

Ish guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.

2. Ushbu bosqichda talabalar 3 ta kichik guruhga bo'linadilar va ular guruhlarda hamkorlikda ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiriladi.

Avvaldan tayyorlangan maxsus so'zlar yozilgan tarqatmalar parta ustiga qo'yib chiqiladi. O'qituvchi tomonidan tayyorlangan kichik tarqatmalarda ko'rsatilgan so'zlar (**syujet, kompozitsiya, konflikt**) yozilgan kartochkalarni talabalar kelib olishadi. Bir xil so'z tushgan talabalar o'sha so'z yozilgan stol atrofiga o'tiradilar. Masalan, syujet so'zi tushgan 10 ta talaba syujet so'zi yozilgan stolga kelib o'tiradilar.

Talabalarni 3 guruhga bo'lib olganimizdan so'ng har bir guruhga mavzu yuzasidan 3 tadan savol yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Taxminan quyidagicha savollar beriladi:

- A) Badiiy asardagi yetakchi tamoyillar qaysilar?
- B) Badiiy asar syujeti tushunchasiga ta'rif bering.
- C) Syujet tamoyillarini ayting.

- A). Kompozitsiya nima?
- B) Kompozitsiya tamoyillari deganda nimani tushunasiz?
- C) Kompozitsiya

- A) Konflikt nima?
- B) Konflikt turlari.
- C) Syujet hamda kompozitsiya mutanosibligi haqida gapiring.

Dars jarayonida har bir guruhga savollar beriladi va ularga javob qaytarish talab etiladi.

Guruhlar ishida yordam (maslahat) berib boriladi.

Guruh sardorlari berilgan savollarga jamoaning javoblarini bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, o'qituvchi guruh sardorini to'xtatib, yana qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi.

Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosa-laydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.

Guruh sardorlari o'qituvchi stolidagi kartochkalardan birini tanlaydi, kartochkalarda badiiy asar nomlari yozilgan bo'ladi (o'tgan darsda talabalarga uyga vazifa sifatida ma'lum va mashhur asarlarni o'qib kelish topshirilgan bo'ladi). Guruh a'zolari o'zlariga tushgan badiiy asar tarkibini syujet unsurlari bo'yicha tahlil qilib berishlari kerak. Bu topshiriq orqali talabalarining kitobxonlik darajasi hamda mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt mobaynida guruhlar o'zaro kelishgan holda ishlaydilar. So'ng guruh sardorlari chiqib topshiriqni taqdim qiladilar.

O'qituvchi mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi. Xulosa qilib aytganda, bunday usullar talabalar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi: talabalarda guruh bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi; mavzuni o'zlashtirishga sarflandigan vaqt tejaladi; o'zlashtirilgan bilimning yodda qolish samaradorligi ortadi.

1. O'qituvchi o'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.

Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi. Talabalar baholash mezonlari asosida baholanadilar.

Keyingi dars yuzasidan uyga vazifa beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.pedagog.uz/> pedagogika muassasalari portali
2. <http://www.ziyouz.com>
3. <http://www.ijod.uz>
4. <http://www.ziyo.net>

3-mavzu. SHE'RSHUNOSLIK ASOSLARI

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni 25 – 30
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	• Barmoq, aruz hamda o'zga she'r tuzilishi haqida ma'lumot • She'riyat xosliklari va she'r tuzilishi • Poetik sintaksis hamda she'rning fonetik vositalari • She'rning til sistemasi va xususiyatlari bilan bog'liqligi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: She'riy namunalar tahlili orqali she'riy sistemalar va ularning tuzilishi haqida ma'lumot berish</i>	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
• Talabalarga she'riyat xosliklari va she'r tuzilishi haqida tushuncha berish; • Poetik sintaksis hamda she'rning fonetik vositalari bilan tanishtirish; • She'rning til sistemasi va xususiyatlari bilan bog'liqligini tushuntirish.	• Talabalarga she'riyat xosliklari va she'r tuzilishi haqida tushuncha beriladi; • Poetik sintaksis hamda she'rning fonetik vositalari bilan tanishtiriladi; • She'rning til sistemasi va xususiyatlari bilan bog'liqligi tushuntiriladi.
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor so'rov
Ta'lim berish metodlari	Jamoadi ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

3.2 Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. Jamoalar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Jamoalar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	Tinglaydilar.
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati, dolzarbliligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi. 1.3. Ish guruhlarida o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 5 ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlikda ishlash usuli, qoidalarini bilan tanishtiradi. 2.2. Har bir guruhga savollar beradi va ularga javob berish talab etiladi. 2.3. Guruhlar ishida yordam (maslahat) beradi.	Kichik guruhlarda ishlaydilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar.

2014/16
A
1272

Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

	2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga jamoaning javoblari ni bayon qiladi. Aniqlik kintilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, yana qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Guruh sardorlarini tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar. O'zini o'zi baholaydilar
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiriladi. 3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagani joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar.

Uslubiy ko'rsatmalar

Darsning dastlabki bosqichi o'qituvchining darsga tayyorgarlik bosqichidir. Bunda mavzu aniqlanib, uni yoritib berishga, talabalar bilan ishlashga doir yo'riqnomalar ishlab chiqiladi. Amaliy mashg'ulot jarayoni esa 3 bosqichdan iborat.

1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati, dolzarbliligini asoslaydi.

Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi.

Ish guruhlarida o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.

2. Guruhlarda ishlash qoidasi e'lon qilinadi.

Talabalar 5 ta kichik guruhga bo'linadilar. O'qituvchi guruhlarda hamkorlikda ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi.

Talabalarga 1-topshiriq beriladi. **Birgalikda o'qish.** Har bir kichik gu-

ruh o'rganilayotgan mavzuning biror sohasida ekspert bo'ladi va boshqalarga o'rgatadi.

5-6 talabadan iborat guruhlar tuziladi, ularga talabalarning takliflari asosida nom beriladi. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi – umumiy mavzuning bir qismi, uning ustida butun o'quv guruhi ish olib boradi hamda ularga ekspert varaqlari taqdim etiladi. **Barmoq, aruz, erkin she'r, badiiy san'atlar, poetik sintaksis** kabi mavzular ustida ishlash taklif etiladi.

Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi. Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi. Barcha guruh a'zolarining qisqa ma'ruzalari tinglanadi va muhokama qilinadi.

She'r tizimlari, she'r tuzilishi, band qurilishiga oid slaydlar taqdim etiladi.

Guruhlar ishida yordam (maslahat) beriladi.

Guruh sardorlari berilgan savollarga jamoaning javoblarini bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, yana qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi.

Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.

3. O'qituvchi mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi. Xulosa qilib aytganda, ushbu metod talabalar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi: talabalar-da guruh bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi; har bir mavzuning puxta o'rganilishiga erishiladi.

Keyingi mavzu yuzasidan uyga vazifa beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

2. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик
луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.

3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi,
2001.

4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.pedagog.uz/> pedagogika muassasalari portali

2. <http://www.ziyouz.com>

3. <http://www.ijod.uz>

4. <http://www.ziyo.net>

4-mavzu. ADABIY TURLAR VA JANRLAR

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni 25 – 30
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Epik turga xos xususiyatlar 2. Lirik turga xos yetakchi xususiyatlar 3. Drama va mazkur adabiy turga mansub janrlar 4. Paremik tur haqida tushuncha
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: ijodkorning davr voqealariga munosabati, turlar va janrlar imkoniyatidan foydalanib voqealar, obrazlar yaratish mahorati masalalarini tadqiq etish</i>	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
• Talabalarga epos adabiy turi-ga xos xususiyatlar haqida tushuncha berish; • Lirik turga xos yetakchi xususiyatlarni tushuntirish; • Drama va mazkur adabiy turga mansub janrlar bilan tanishtirish; • Paremiya adabiy turi haqida ma'lumot berish.	• Talabalarga epik turga xos xususiyatlar haqida tushuncha beriladi; • Lirik turga xos yetakchi xususiyatlar tushuntiriladi; • Drama va mazkur adabiy turga mansub janrlar bilan tanishtiriladi; • Paremiya adabiy turi haqida ma'lumot beriladi.
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor so'rov
Ta'lim berish metodlari	Jamoada ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

4.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. Jamoalar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Jamoalar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati, dolzarbliligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi. 1.3. Ish guruhlarida o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarida hamkorlikda ishlash usuli, qoidalar bilan tanishtiradi. 2.2. Har bir guruhga savollar beradi va ularga javob berish talab etiladi.	Kichik guruhlarida ishlaydilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar.

	2.3. Guruhlar ishida yordam (maslahat) beradi. 2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga jamoaning javoblari ni bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, yana qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Guruh sardorlari ni tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar. O'zini o'zi baholaydilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiriladi. 3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar.

Uslubiy ko'rsatmalar

Darsning birinchi bosqichi o'qituvchining darsga oid yo'riqnomalarni tayyorlashidan iborat. Bevosita dars jarayoni esa uch bosqichli:

1. Talabalarni 3 ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlikda ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi.

2. Har bir guruhga savollar beradi va ularga javob berish talab etiladi. Bu jarayonda o'qituvchi guruhlar ishida yordam (maslahat) beradi.

Guruh sardorlari berilgan savollarga jamoaning javoblari ni bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, yana qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi.

Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.

1-topshiriq

Talabalar 3 guruhga bo'linadilar.

Har bir talaba o'qituvchi stolidagi kartochkalardan bittasini tanlab oladi. Bir xil kartochka olgan talabalar bitta guruh bo'lib shakllanadilar va kartochkadagidek nomlanadilar. O'qituvchi stolida epos, lirika va drama so'zlari yozilgan bo'ladi. Talabalar qaysi adabiy tur nomi tushgan bo'lsa, aynan shu turga mansub o'zlari o'qigan asar nomlarini yozishlari kerak.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt mobaynida guruhlar o'zaro kelishgan holda ishlaydilar. So'ng guruh liderlari chiqib topshiriqni taqdim qiladilar.

Shundan keyin adabiy turlar va janrlar bo'yicha bilimlarini bayon qiladilar.

2-topshiriq

Guruhlarga har birida mavzuga oid uchtdan savol yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Guruh a'zolari savollarga tayyorlanib faol tarzda javob beradilar.

1. Epos adabiy turiga xos xususiyatlar
2. Lirikada syujet
3. Paremiya adabiy turi haqida tushuncha

1. Lirik turga xos yetakchi xususiyatlar
2. Lirik qahramon
3. Tragediya haqida

1. Drama va mazkur adabiy turga mansub janrlar
2. Adabiy turlarning farqlari
3. Epos mavzusi

Ushbu tarqatmalar har bir stoldagi talabalarga beriladi va uni o'rgatish vazifasi topshiriladi. Belgilangan vaqt davomida guruhlar savollar

ustida ishlaydilar hamda guruh a'zolari savollarga javob beradilar (20 daqiqa).

O'qituvchi mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi. Xulosa qilib aytganda, ushbu metod talabalar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi: talabalarda guruh bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi; mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt teжалadi.

3. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiriladi.

Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.

Talabalar reyting tizimi asosida baholanadilar va kelgusi dars uchun uyga vazifa beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov D.. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
2. Қурунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшunoslik луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.pedagog.uz/> pedagogika muassasalari portali
2. <http://www.ziyouz.com>
3. <http://www.ijod.uz>
4. <http://www.ziyo.net>

5-mavzu. IJODIY METOD

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni 25 – 30 tagacha
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	• ijodiy metod, adabiy oqim va yo'nalish • klassitsizm va sentimentalizm • romantizm va realizm • boshqa adabiy yo'nalish va oqimlar haqida
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarga ijodiy metodlar haqida tushuncha berish, adabiy oqim va yo'nalishlar o'rtasidagi farqni misollar yordamida ko'rsatish</i>	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
• Talabalarga ijodiy metod, adabiy oqim va yo'nalish haqida ma'lumot berish; • klassitsizm va sentimentalizmga xos xususiyatlarni tushuntirish; • romantizm va realizmga xos xususiyatlarni tushuntirish; • boshqa adabiy yo'nalishlar, modernizm haqida ma'lumot berish.	• Talabalarga ijodiy metod, adabiy oqim va yo'nalish haqida tushuncha beriladi; • klassitsizm va sentimentalizmga xos yetakchi xususiyatlar tushuntirildi; • romantizm va realizm haqida ma'lumot beriladi • boshqa adabiy yo'nalishlar, modernizm haqida ma'lumot beriladi.
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor so'rov
Ta'lim berish metodlari	Jamoada ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

5.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. Jamoalar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Jamoalar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati, dolzarbliligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi. 1.3. Ish guruhlarida o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlikda ishlash usuli, qoidalar bilan tanishtiradi. 2.2. Har bir guruhga savollar beradi va ularga javob qaytarish talab etiladi. 2.3. Guruhlar ishida yordam (maslahat) beradi.	Kichik guruhlarda ishlaydilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar.

	2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga jamoaning javoblari-ni bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, yana qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Guruh sardorlarini tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar. O'zini o'zi baholaydilar
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiriladi. 3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar.

Uslubiy ko'rsatmalar

Avvalo, dars mavzusi e'lon qilinadi va bosqichlari bilan tanishtirib o'tiladi. Dars uch bosqichda olib boriladi:

1. Bu mavzuni o'tishda BBB texnologiyasidan foydalanish mumkin. Yozuv taxtasiga o'qituvchi katta harflar bilan BBB, ya'ni BILAMAN, BILISHNI ISTAYMAN, BILIB OLDIM so'zlarini yozadi. Shundan keyin talabalar uch guruhga bo'linadilar va muhokamalarga o'rin beriladi.

2. **Bilaman** bosqichida har uchala guruh amaliy mashg'ulot rejasi bo'yicha tayyorgarlik ko'rib kelgan mavzularini yoritib beradilar. Bunda taqdimot slaydlari orqali mavzuga oid materiallarni namoyish qilishlari mumkin.

Bilishni istayman bosqichida har uchala guruh talabalari boshqa guruhlar tayyorlagan ma'ruzalar yuzasidan savollar bilan qatnashadilar.

3. Bilib oldim bosqichida esa o'qituvchi tomonidan tayyorlangan testlar tarqatilib bugungi amaliy mashg'ulot bo'yicha olingan bilimlar sinab ko'riladi. Test savollari quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Metod deb nimaga aytiladi?

- A) Yozuvchi uslubi
- B) Adabiy oqim
- C) Hayotni qayta aks ettirish usuli
- D) Yozuvchilar guruhi

2. Adabiy yo'nalish deb nimaga aytiladi?

- A) U yoki bu yozuvchilar guruhining umumiy tamoyillari yig'indisi
- B) Voqelikni tasvirlash usuli
- C) G'oyalar birligi
- D) Mafkuraviy oqim

Sentimentalizm nimaga asoslanadi?

- A) Ijtimoiy munosabatlarga
- B) Tafakkur ustunligiga
- C) Tafakkurning emas, hissiyotning ustunligiga
- D) Tipiklashtirishga

va hokazo.

O'qituvchi talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholaydi, kerakli o'rinlarni qayta o'rganish uchun adabiyotlar tavsiya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.

4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.pedagog.uz> / pedagogika muassasalari portali
2. <http://www.ziyouz.com>
3. <http://www.ijod.uz>
4. <http://www.ziyo.net>

MUNDARIJA

Kirish.....	1
1-mavzu. Adabiy-nazariy tafakkur tarixi	4
2-mavzu. Badiiy asar tarkibi va tahlili.....	10
3-mavzu. She'rshunoslik asoslari	16
4-mavzu. Adabiy turlar va janrlar	21
5-mavzu. Ijodiy metod	26

Gulbahor SAIDG'ANIYEVA

ADABIYOT NAZARIYASI

(Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha uslubiy tavsiyalar)

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badliy muharrir: Xurshid IBROHIMOV

Texnik muharrir: Alimardon AQILOV

Musahhih: Marhabo JO'RAYEVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 09.09.2013-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.10.2013-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84 1/16.

Arial garnituras. Ofset usulida bosildi.

Hisob-nashriyot t.: 0,94. Shartli b.t.: 1,86.

Adadi: 300 nusxa.

Buyurtma № 74

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-70

e-mail: akademnashr@mail.ru

web-site: www.akademnashr.uz